



PROBLEMS AND ETHICAL FEATURES OF THE IMPACT OF DISCIPLINARY PUNISHMENT ON ADAPTATION TO THE SOCIAL ENVIRONMENT

Gulchekhra Shukurullayeva

independent researcher

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: gulinmsm@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: adaptation, punishment, disciplinary punishment, moral education, social relations, integration.

Received: 10.04.25

Accepted: 12.04.25

Published: 14.04.25

Abstract: Disciplinary punishment is a form of penalty imposed on offenders by society for their culpability. Such punishment significantly alters the individual's social, psycho-emotional, and moral state. This article analyzes the adaptation of offenders to the social environment, their moral characteristics, as well as the challenges they face in the process of rehabilitation.

The aim is to shed light on how disciplinary punishment affects the moral and social condition of the individual and to explore the issues surrounding their reintegration into society.

INTIZOMIY JAZO IJTIMOY MUHITGA ADAPTATSIYASI TA'SIRI MUAMMOLARI HAMDA AXLOQIY XUSUSIYATLARI

Gulchexra Shukurullayeva

mustaqil izlanuvchi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: gulinmsm@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: adaptatsiya, jazo, intizomiy jazo, axloqiy tarbiya, ijtimoiy munosabatlar, integratsiya.

Annotatsiya: Intizomiy jazo jinoyatchilarning jamiyatdan oqibatdagi aybdorlik uchun olingan jazo turidir. Bunday jazo shaxsning ijtimoiy, psixo-emotsional va axloqiy holatini aniq yo'sinda o'zgartiradi. Ushbu maqolada jinoyatchilarning ijtimoiy muhitga moslashuvi va axloqiy xususiyatlari, shuningdek, ularni qayta tarbiyalash

jarayonidagi muammolari tahlil etiladi. Maqsad intizomiy jazoning shaxsning axloqiy va ijtimoiy holatiga qanday ta'sir ko'rsatishi hamda jamiyatga qayta qo'shilish muammolarini yoritishdan iborat.

ПРОБЛЕМЫ И ЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ ДИСЦИПЛИНАРНЫХ ВЗЫСКАНИЙ НА АДАПТАЦИЮ К СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЕ

Гульчехра Шукуруллаева

независимый исследователь

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: gulinmsm@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	адаптация, наказание, дисциплинарное наказание, нравственное воспитание, социальные отношения, интеграция.	Аннотация:	Дисциплинарное наказание - это вид наказания, применяемого к преступникам за их вину перед обществом. Такое наказание существенно влияет на социальное, психоэмоциональное и нравственное состояние человека. В данной статье анализируются социальная адаптация и нравственные особенности преступников, а также проблемы, возникающие в процессе их перевоспитания. Цель состоит в том, чтобы осветить, как дисциплинарное наказание влияет на нравственное и социальное состояние личности, и рассмотреть проблемы реинтеграции в общество.
------------------------	--	-------------------	--

Kirish. Intizomiy jazo insonning ijtimoiy faoliyatiga, uning axloqiy-ma'naviy me'yorlariga va jamiyatga qo'shilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan muammolardan biridir. Bu muammolarning murakkabligi shundaki, jazo tizimi nafaqat jismoniy yoki huquqiy jazoga, balki shaxsning ichki holatiga, uning axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlariga ham salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Intizomiy jazo oqibatida inson jamiyatdan uzoqlashishi, ijtimoiy muhitga moslashishi qiyinlashishi va bir qator ichki ruhiy hamda axloqiy muammolarga duch kelishi mumkin.

Bundan tashqari, jazo tizimi insonning axloqiy xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarining o'zgarishiga ta'sir qiladi. Bunda jazolash choralarining shaxsning yaqin atrofi va ijtimoiy muhiti bilan bog'liq muammolarga ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, aniq axloqiy qoidalar va prinsiplar jamiyatning barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega, ammo jazo insonning shubha va aniqlashgan qarorlariga ta'sir ko'rsatishi natijasida uning axloqiy nazarlarini murakkablashtirishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili: Mavzuga adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Intizomiy jazo ijtimoiy muhitga adaptatsiyasi ta'siri muammolari hamda axloqiy xususiyatlari har doim dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bu masalada Xorijiy tadqiqotchilar ijtimoiy muhitga adaptatsiya, axloqiy xususiyatlar va intizomiy jazo sohasida bir necha yo'nalishda ish olib borgan. Ular shaxsning ijtimoiy muhitga qaytishi, axloqiy munosabatlari va qayta tarbiyalanish jarayonini o'rganishgan. Xususan, Jon H. Laub va Robert J. Sampsonning "Ijtimoiy nazorat va jinoyatchilik" nomli tadqiqotida jinoyatchilik va ijtimoiy integratsiya masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ular ijtimoiy nazoratning ahamiyatini va ijtimoiy tarmoqlarning shaxs axloqiy o'zgarishlariga ta'sirini o'rganishgan.

Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, jinoyatchilarning ijtimoiy muhitga moslashuvi ko'p jihatdan ularning avvalgi ijtimoiy aloqalariga hamda ularni jamiyatga qaytarishga yordam berish uchun ishlab chiqilgan dasturlarning samaradorligiga bog'liq ekan. Amerikalik ijtimoiy psixolog Kreyg Xeyni esa axloq tuzatish muassasalaridagi jinoyatchilarning axloqiy o'zgarishlari va ularning ijtimoiy moslashuvini o'rganishga e'tibor qaratgan.

Haney o'zining "Qamoqning psixologik ta'siri: Qamoqdan keyin moslashish muammolari" nomli tadqiqot ishida jinoyatchilarni hukm qilish, ularning ruhiy holatidagi o'zgarishlar va jamiyatga qayta qo'shilish muammolarini chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, mahbuslar ko'pincha jamiyatga qaytish uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim va ruhiy-hissiy yordamga muhtoj bo'ladi. Ingliz professori Shadd Maruna o'zining "Yaxshi yo'lga qaytish: Sobiq mahbuslar o'zlarini qanday o'zgartiradi va hayotlarini qayta quradi" nomli kitobida jazodan ozod etilgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvi va axloqiy qayta shakllanishi jarayonlariga e'tibor qaratadi.

Uning tadqiqotlari jinoyatchilarni jamiyatga qayta qo'shilish jarayonida "kurashchan men"ning muhimligini va qayta tarbiyalash jarayonida ularning shaxsiy axloqiy qadriyatlarini qayta shakllantirishga ahamiyat berishni ko'rsatadi.

Maruna o'z tadqiqotlarida jinoyatchilarning ijtimoiy qayta integratsiyasini amalga oshirishda "yangi imkoniyatlar"ga ega bo'lishni muhim deb hisoblaydi.

O'zbekistonda ham bu nazariya bo'yicha qator tadqiqotlar mavjud bo'lib, ular mazkur mavzu bo'yicha chuqur ilmiy yondashuvlarni taqdim etadi. Sherzodbek Hamidovning ijtimoiy psixologiya va qonunchilik bilan bog'liq tadqiqotlarida jinoyatchilik va jazo insonning ijtimoiy muhitga qaytishiga qanday ta'sir ko'rsatishiga alohida e'tibor qaratilgan. Uning "Jazo va qayta integratsiya" nomli ilmiy ishida o'rganilayotgan ijtimoiy muhitning jinoyatchilarning axloqiy va ruhiy holatini shakllantirishdagi o'rni, shaxsning jamiyatga qayta moslashuvini qiyinlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi omillar tadqiq etilgan.

Nodira Ahmadova esa o'zining "Jinoyatchilarni intizomiy jazolash va axloqan qayta tarbiyalash" nomli tadqiqotida jazo tizimi hamda jinoyatchilarning ijtimoiy moslashuvi bilan bog'liq muammolarga alohida e'tibor qaratgan.

Uning ishida, O'zbekistondagi jazo muassasalarining axloqiy tarbiyaga qaratilgan maxsus dasturlar va ijtimoiy adaptatsiya mexanizmlari haqida xulosalar berilgan. Mahmud Qodirovning "Jazo, axloqiy daraja va ijtimoiy muhit" mavzusidagi tadqiqoti O'zbekistondagi mahkumlarning axloqiy darajasini o'rganish va ularni jamiyatga qayta integratsiya qilishga qaratilgan. Uning ishida shaxsning axloqiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar: jazo tizimi, ta'lim va yordam ko'rsatish tizimi, ijtimoiy muhit va ruhiyat keng ko'lamda tahlil qilingan.

Bugungi kunda ham O'zbekistondagi tadqiqotchilar ijtimoiy muhitga adaptatsiya, axloqiy xususiyatlar va intizomiy jazo sohasida keng ko'lamda tadqiqotlar olib bormoqdalar. Ular jinoyatchilik, axloqiy tarbiya, ijtimoiy xizmatlar va qayta integratsiya jarayonlarining o'zaro aloqasini chuqur tahlil qilishmoqda.

Tahlil va natijalar: Intizomiy jazo - jamiyat oldidagi nojo'ya xatti-harakat oqibatlari uchun huquqbuzarlarga qo'llaniladigan jazo turidir. Bunday jazo insonning ijtimoiy, ruhiy-hissiy va axloqiy holatiga aniq ta'sir ko'rsatadi. Huquqbuzarlarning qonunga xilof xatti-harakatlari jamiyatning axloqiy me'yorlarini buzadi, natijada ular jamiyatda sha'ni tushgan va tubanlashgan shaxslar sifatida qabul qilinadi. Shu bois, huquqbuzarlarni qayta tarbiyalash va jamiyatga qayta moslashtirishning jarayoni muhim masalaga aylanmoqda.

Intizomiy jazo va undan keyingi jamiyatga qayta qo'shilish jarayoni shaxsning axloqiy kamolotiga, uning ijtimoiy muhitga moslashuviga katta ta'sir ko'rsatadi. Jazo natijasida shaxslarning ijtimoiy va axloqiy tuzilmalarida o'zgarishlar yuz beradi. Bu jarayonda odamlar oila, ish va ijtimoiy muhit bilan yangi munosabatlar o'rnatishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Shuningdek, qamoq jazosi va boshqa turdagi jazolar sharoitida mahbuslar axloqiy qadriyatlarni qayta shakllantirish va ruhiy holatini barqarorlashtirishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar.

Yana bir muhim jihat shundaki, ijtimoiy muhit va shaxsning ichki dunyoqarashi o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir qayta tarbiyalash jarayonining samaradorligini belgilaydi. Qamoqdan ozod etilgan shaxslar jamiyatga moslashish uchun tegishli psixologik yordam, ma'naviy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy integratsiya dasturlariga ehtiyoj sezadilar.

Jinoyatchini jamiyatga qayta qo'shish jarayoni jamiyatning axloqiy va ijtimoiy me'yorlariga muvofiq shakllanadi. Bu jarayonda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, professional yordam va qayta integratsiya dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. Agar shaxs qamoqdan chiqqandan so'ng yoki jazoni o'tash jarayonida yetarli ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lmasa, uning jamiyatga qaytishi

qiyinlashadi. Ijtimoiy muhit jinoyatchining jamiyatga qayta moslashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Inson jazo olgach, o'zining ijtimoiy ahamiyatini, oilaviy munosabatlardagi va jamiyatga qo'shilishdagi o'rnini qayta baholashga majbur bo'ladi. Jazo muddati davomida shaxsning ma'naviy va ruhiy holati o'zgarishi mumkin, bu esa ijtimoiy munosabatlarda ziddiyatlar, ishonch va ishonchsizlik, hatto ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bunday odamlar ko'pincha jamiyatga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, chunki ularning ijtimoiy mavqei, shaxsiyati va bag'rikenglik yoki tushunishga bo'lgan ehtiyojlari bir-biriga zid bo'lishi mumkin.

Intizomiy jazo shaxsning axloqiy munosabatlariga va ijtimoiy me'yorlarga muvaffaqiyatli moslashishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Natijada, inson aniq qarorlar qabul qilishda qiyinchilik, ishonchsizlik va ehtiyotkorlikni his qilishi mumkin. Ko'p hollarda mahkum jamiyatga qayta qo'shilganda, uning axloqiy qadriyatlarini, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlari sinovdan o'tadi.

Axloqiy fazilatlar jamiyatga qo'shilishning muhim omillaridan biri bo'lib, jinoyatchilarni qayta tarbiyalash va ularning axloqiy darajasini shakllantirish uchun majburiy yordam va yoshlarga qaratilgan maxsus dasturlar zarur. Jinoyatchilarni jamiyatga qayta integratsiya qilishda ularning axloqiy qadriyatlarini va shaxsiy hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Axloqiy tarbiya va reintegratsiyaning samarali mexanizmlari ularning jamiyatga qayta integratsiyalashuviga yordam berishi mumkin.

Jinoyatchilarni axloqiy tarbiyalashda ularga yordam berish, ichki dunyoqarashini yo'naltirish, hayotini qayta qurish muhim ahamiyatga ega.

Shaxsning ichki muhiti uning psixologiyasiga, axloqiy qarashlariga, o'zligini anglashiga, jamiyatga munosabatiga, emotsional holatiga ta'sir etuvchi omillardir. Tashqi muhit - jamiyatdagi mehnat sharoiti, ijtimoiy xavfsizlik, oila muhiti va yoshlarning to'g'ri axloqiy tarbiyasini ta'minlovchi shart-sharoitlardir. Ushbu ikki muhitning o'zaro ta'siri jinoyatchilarning jamiyatga qayta integratsiyalashuvi uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa: Intizomiy jazo, shaxsning axloqiy va ijtimoiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Jinoyatchi shaxslarning jamiyatga qayta integratsiyasiga ishoncha va yordam ko'rsatish zarur. Bu jarayonda shaxsning axloqiy o'zaro munosabatlarini shakllantirish va ijtimoiy muhitga o'rganishdagi muammolarni hal qilish muhim ahamiyatga ega. Qayta integratsiyalash va axloqiy tarbiyalash mexanizmlari, shuningdek, ijtimoiy yordam dasturlari muammolarni hal qilishda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, Intizomiy jazo shaxsning axloqiy holatiga katta ta'sir ko'rsatadi, uning jamiyatga adaptatsiyasi va qayta integratsiyasini murakkablashtiradi. Ijtimoiy muhit, axloqiy qadriyatlar va qayta tarbiyalanishning samarali mexanizmlari shaxslarning jamiyatga qayta kirishini osonlashtirishi mumkin. Shaxsni qayta jamiyatga integratsiya qilishda

yordam berish, axloqiy tarbiya va psixologik yordam hamda ijtimoiy himoya tizimlari katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Хамидов Ш, *Жазо ва қайта интеграция*. Тошкент: Олий таълим нашриёти - 2017.
2. Аҳмадова, Н, *Интизомий жазо ва жиноятчиларнинг ахлоқий қайта тарбияланиши*. Тошкент - 2018.
3. Қодиров, М, *Жазо, ахлоқий савия ва ижтимоий муҳит*. Тошкент: -2019.
4. Laub, J. H., & Sampson. R. J. *Social Control and Crime*. Cambridge University Press - 2003.
5. Haney C, *The Psychological Impact of Incarceration: Implications for Post-Prison Adjustment*. Washington DC: American Psychological Association - 2002.
6. Maruna S, *Making Good: How Ex-Convicts Reform and Rebuild Their Lives*. American Psychological Association - 2001.